

## O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA QO'LLANGAN AYRIM FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

*Yangiboyeva Marjona*  
*SamDChTi talabasi*

**Annotasiya:** Maqolada frazeologik iboralarning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Badiiy asarlarda frazeologik birliklarning o'rni xususida fikr yuritiladi. Asarlardagi frazalarning qiyosiy tahlili bir nechta misollar bilan tahlil qilingan. Ba'zi iboralarning ma'nolari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birikma; ibora; uslubiy jihatlar: grammatik, semantik, funksional; ma'nodoshlik; antonimli; omonimlik.

Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh. Balli asos soldi. Frazeologiyalarning grammatik, semantik, funksional—uslubiy jihatlarini rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. Jumladan, V. Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariga ko'ra tasniflaydi. V. Jukov esa frazeologizmlarning kategorial ma'nolarini aniqlagan.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan. (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), Frazeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan.

Frazeologik birikmalar – iboralar. Iboralar - ma'nosi bir so'zga teng keladigan gap yoki so'z birikmalari. Iboralar har doim ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga “frazeologizm”lar deyiladi. [ A. Anorbekova, Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011, 73-74-betlar ]

Frazeologizmlar tilimizni yanada boyitishga, nutqimizni rivojlantirishga yordam beradi va asosan, so'zlashuv va badiiy uslublarda keng qo'llaniladi. Masalan: bir yoqadan bosh chiqarib - ahil bo'lib; ko'ngli joyiga tushdi - xotirjam bo'ldi; tepa sochi tikka bo'ldi - jahli chiqdi, achchiqlandi; xamirdan qil sug'irganday - oson; qo'y og'zidan cho'p olmagan - yuvosh; aravani quruq olib qochadi - maqtanchoq, yolg'onchi; do'ppisi yarimta - beg'am. Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lgi vazifasida keladi. Iborani tashkil etgan so'zlar uning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Masalan: Rais daladagi hosilni ko'rib boshi osmonga yetdi. Bu gapda boshi osmonga yetdi iborasi butun holda murakkab kesim vazifasini bajargan. ( tuzilishi: ot+ot+fe'l) Yoki: Ayolga qo'l ko'tarish gunoh hisoblanadi gapida qo'l ko'tarish iborasi yaxlit holda ega vazifasini bajargan ( tuzilishi:ot+fe'l). Iboralar, asosan, so'zlashuv va badiiy uslubda keng qo'llanilsa,rasmiy va ilmiy uslublarda qo'llanilmaydi. Iboralar ma'nodoshlik (yaxshi ko'rmoq -- ko'ngil bermoq), antonimlik (ko'ngli joyiga tushmoq- yuragiga g'ulg'ula tushmoq), omonimlik (so'z bermoq I – va'da bermoq, so'z bermoq II – gapirishga ruxsat bermoq) xususiyatiga ega. [R. Sayfullayeva va boshqalar, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2009, 133-bet]

Frazeologik birliklar nutqda tayyor holda uchraydi, ular turg'un biirikmalar bo'lib, funksional va semantik jihatdan bo'linmas yoki ajralmas birliklardir. [ I. G'afurov, O. Mo'minov, N.Qambarov , Tarjima nazariyasi. – Toshkent, 2012, 161-bet]

Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.

Frazeologizimlar badiiy adabiyotlarda qo'llanilganda kuchliroq ma'no ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek adabiyotida frazeologizimlar, ayniqsa, O'tkir Hoshimov asarlarida mahorat bilan qo'llanganligini ko'p guvohi bo'lamiz.

Quyida "Dunyoning ishlari" qissasidagi bir nechta iboralarni ko'rib chiqamiz.

1) -To'kilib ketdi, - dedi oyim boshini quyi solib. (21-b). **Boshini quyi solmoq** – mayus turmoq, xafa bo'lmoq . Tuzilishi: ot+ravish+fe'l

2) Noiloj mashinani tislantirib olib keldim, qovog'imdan qor yog'ayotganini o'zim ham sezib turardim. (23-b). **Qovog'idan qor yog'moq** – xafa bo'lmoq. Tuzilishi: ot+ot+fe'l

3) Shu kuni nima yumush buyurishsa, oyog'im olti , qo'lim yetti bo'lib yugurib yurdim. (24-b). **Oolti, qo'li yetti bo'lmoq** – tez harakatlanmoq. Tuzilishi: ot+son+ot+son+fe'l

4) – Isanmisiz? – deb so'rashadi-yu , hasratini to'kib soladi. (71-b). **Hasratini to'kib solmoq** – bayon qilmoq. Tuzilishi: ot+fe'l

5) Rostini aytsam, tovonimdagi jonim hiqildog'imga keldi. (80-b). **Joni hiqildog'iga kelmoq** – o'lar holatga kelmoq, qiynalib ketmoq. Tuzilishi: ot+ot+fe'l

6) Saini qulog'ini tishlagandan ko'ra kuchugimning qulog'ini tishlayman (127-b). **Qulog'ini tishlamoq** – o'ziniki qilib qo'ymoq. Tuzilishi: ot+fe'l

7) Qani, bo'yniga olmay ko'rsin-chi. (133-b). **Bo'yniga olmoq** – iqror bo'lmoq. Tuzilishi: ot+fe'l

8) – Qani, yana bir marta qo'lini tegizib ko'rsin-chi , qo'lini sindirib o'choqqa tiqaman ! (146-b). **Qo'lini tekkizmoq** – kaltaklamoq. Tuzilishi: ot+fe'l

9) Yugurib borarkanman, yig‘lardim, nimaga yig‘layotganimni o‘zim bilmasdim-u , hech o‘pkamni tutolmadim. (184-b). **O‘pkasini tuta olmay qolmoq** – yig‘idan o‘zini to‘xtatolmay qolmoq. Tuzilishi : ot +fe‘l+fe‘l

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma‘no hodisasidir. Frazeologizm va so‘z bo‘lmasa, nutqiy-sintaktik butunlik ham bo‘lmaydi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologizmlar bilan boyib boradi. Frazeologizmlar so‘zlovchi nutqini ta‘sirchan va kuchli emotsiyaga boy bo‘lishini ta‘minlovchi muhim birlik hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Anorbekova, Hozirgi o‘zbek adabiy tili , Toshkent, “NOSHIR” nashriyot”, 2021, jami 334 sahifa
2. R. Sayfullaveva, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent – “Fan va texnologiya”-2009, jami 414 sahifa
3. I. G‘afurov, O. Mo‘minov, N. Qambarov, Tarjima nazariyasi, Toshkent, “Tafakkur Bo‘stoni”, 2012, jami 215 sahifa